

beradigan darajaga olib chiqibgina qolmay, mamlakat investitsion jozibadorligini oshirishga ham bevosita hissa qo'shadi.

DAVLAT FISKAL VOSITALARI ORQALI ENERGETIKA LOYIHALARINI MOLIYALSHTIRISHNI RAG'BATLANTIRISH IMKONIYATLARI

Yakubova Rushana G'olib qizi
TDIU, "Moliya" mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot energetika sohasiga investitsiyalarni jalb qilishda fiskal mexanizmlarning ta'sir doirasini kengaytirish masalalariga bag'ishlangan. Tezida energetika loyihalarining o'ziga xos iqtisodiy tabiati, yuqori kapital sig'imi va uzoq muddatli rentabellik ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Sohadagi soliq yukini optimallashtirish va bojxona preferensiyalarini tabaqalashtirish bo'yicha yangi iqtisodiy yondashuvlar ilgari surilgan bo'lib, ular energetika xavfsizligini ta'minlashda fiskal rag'batlantirishning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: energetika iqtisodiyoti, fiskal rag'batlantirish, kapital sig'imi, soliq ta'tillari, bojxona preferensiyalari, reinvestitsiya, investitsion soliq krediti.


Zamonaviy iqtisodiy sharoitda energetika tarmog'i har qanday davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi fundamental baza hisoblanadi. O'zbekiston iqtisodiyotining transformatsiya bosqichida energetika quvvatlarini modernizatsiya qilish nafaqat texnik, balki murakkab iqtisodiy-fiskal jarayondir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasida energetika mustaqilligiga erishish va sohada xususiy sektor ulushini oshirish strategik maqsad sifatida belgilangan⁵⁴ [2].

O'zbekiston energetika sektori jadal transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda, bunda an'anaviy va qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish tizimlari rivojlanmoqda. 2024-yil holatiga ko'ra, mamlakatda umumiy o'rnatilgan quvvati 21 398 MVt bo'lgan 91 ta elektr stansiya faoliyat yuritmoqda. Energiya ishlab chiqarish tarkibida issiqlik elektr stansiyalari 80%, gidroenergetika 10%, quyosh energiyasi 9% va shamol energiyasi 1% ulushni tashkil etadi (1-rasm). 2024-yilda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 84.1 milliard kVt/soat ga yetgan. Shuningdek, 2 000 MVt quyosh energiyasi va 200 MVt shamol energiyasi quvvatlari ishga tushirilgan hamda 184 km yangi elektr uzatish infratuzilmasi qurilgan⁵⁵ [5].

Energetika loyihalari o'zining investitsion tabiati bo'yicha boshqa tarmoqlardan tubdan farq qiladi. Mazkur loyihalarda dastlabki investitsiya xarajatlarning (CAPEX) o'ta yuqoriligi va loyihaning o'zini oqlash muddati o'rtacha 7-12 yilni tashkil etishi investorlardan katta moliyaviy barqarorlikni, davlatdan esa ishonchli fiskal kafolatlarni talab etadi.

⁵⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6600413>

⁵⁵ Invest Uzbekistan. Energy sector overview. — 2024. <https://invest.gov.uz/en/guide/explore/8>



1-rasm. O'zbekistonda energiya ishlab chiqarish tarkibi (2024)

Manba: invest.gov.uz portal ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Energetika iqtisodiyoti bo'yicha fundamental qo'llanmalarda isbotlanishicha, sohadagi fiskal rag'batlantirish uchta asosiy bosqichni qamrab olishi kerak: boshlang'ich xarajatlarni kamaytirish, operatsion yukni pasaytirish va reinvestitsiya jarayonini tezlashtirish⁵⁶. Energetika qurilmalari (quyosh panellari, invertorlar, shamol turbinalari) importida bojxona bojidan ozod etish loyihaning kapital sig'imini (CAPEX) 20 foizgacha kamaytiradi⁵⁷ [3]. Nazariy jihatdan bu holat loyihaning "zararsizlik nuqtasi"ga yetib borish vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi va investorning moliyaviy xavfsizligini ta'minlaydi⁵⁸ [4]. Amaldagi Soliq kodeksi doirasida energetika ob'ektlari uchun mol-mulk va yer solig'idan 10 yil muddatga berilayotgan ozod etish loyihaning ekspluatatsiya bosqichidagi xarajatlarini minimallashtiradi⁵⁹ [1]. Biroq, ilmiy tahlillar shuni isbotlaydiki, fiskal imtiyozlar faqat vaqtinchalik xarakterga ega bo'lmay, loyihaning butun hayotiy sikli davomida samaradorlik koeffitsiyentiga (EER) bog'langan bo'lishi lozim⁶⁰ [4]. Energetika sohasidagi investitsion loyihalarning hayotiylikini ta'minlash va ularning iqtisodiy rentabelligini oshirish uchun mavjud fiskal vositalardan foydalanish samaradorligini yanada kuchaytirish lozim. N.Jumaboyevning energetika iqtisodiyoti bo'yicha tahlillariga

⁵⁶ Jumaboyev N. Energetika iqtisodiyoti va fiskal siyosat // O'quv qo'llanma. — T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2022. — 186 b.

⁵⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-57-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-6385716>

⁵⁸ Jumaboyev N. Energetika iqtisodiyoti va fiskal siyosat // O'quv qo'llanma. — T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2022. — 186 b.

⁵⁹ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (O'RQ-599-son, 30.12.2019-yilda qabul qilingan, 01.01.2024-yildagi tahrir). <https://lex.uz/docs/-4674902>

⁶⁰ Jumaboyev N. Energetika iqtisodiyoti va fiskal siyosat // O'quv qo'llanma. — T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2022. — 186 b.

tayanib, sohada quyidagi fiskal yo'nalishlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi^{61,62} [3,4]:

birinchidan, energetika ob'ektlari uchun tabaqalashgan soliq stavkalarini qo'llash. Amaldagi tizimda barcha energetika loyihalari uchun umumiy imtiyozlar berilgan bo'lsa-da, loyihaning texnologik murakkabligi va energiya samaradorligi ko'rsatkichidan kelib chiqib, soliq yukini individual tarzda belgilash iqtisodiy jihatdan samaraliroq hisoblanadi. Bu investorga o'z harajatlarini energiyaning yakuniy tannarxi (LCOE) bilan mutanosib ravishda rejalashtirish imkonini beradi;

ikkinchidan, tezlashtirilgan amortizatsiya usulidan foydalanish. Energetika uskunalarning ma'nan eskirish tezligi yuqori ekanligini hisobga olgan holda, ularning qiymatini qisqa muddatlarda (3-5 yil ichida) xarajatga chiqarish huquqini berish muhimdir. Ilmiy manbalarda isbotlanganidek, bu mexanizm korxonada reinvestitsiya jarayonini tezlashtiradi va investorning o'z kapitalini qaytarib olish muddatini qisqartiradi;

uchinchidan, investitsion soliq krediti tizimini joriy etish. Energetika loyihalari dastlabki yillarda ko'pincha zarar bilan ishlashini inobatga olib, investorlarga sarflangan kapitalning ma'lum qismini kelajakdagi soliq majburiyatlaridan chegirib tashlash imkoniyati berilishi lozim. Ushbu fiskal vosita loyihaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda va investorlarning likvidlilik riskini kamaytirishda asosiy drayver bo'lib xizmat qiladi;

to'rtinchidan, bojxona imtiyozlari qamrovini kengaytirish. Faqat asosiy texnologik uskunar emas, balki ularga xizmat ko'rsatuvchi ehtiyot qismlar va servis butlovchi buyumlarini import qilishda ham fiskal yengilliklar berish, ob'ektning butun hayotiy sikli davomida barqaror ishlashini kafolatlaydi.

Energetika sohasida investitsiya loyihalarini jalb etish jarayonida fiskal siyosat vositalaridan samarali foydalanish mamlakat energetika xavfsizligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, amaldagi soliq va bojxona imtiyozlari energetika loyihalarining kapital sig'imini kamaytirish bilan birga ularning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot davomida taklif etilgan ilmiy asoslangan yondashuvlar va modellar investorlar uchun barqaror va uzoq muddatli ishonch muhitini shakllantirishga yordam beradi. Natijada, ushbu mexanizmlarni amaliyotga joriy etish energetika tarmog'ini modernizatsiya qilish, investitsiya oqimini kengaytirish hamda sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

⁶¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-57-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-6385716>

⁶² Jumaboyev N. Energetika iqtisodiyoti va fiskal siyosat // O'quv qo'llanma. — T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2022. — 186 b.